

Rivojlanish istiqbollarini asosini kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va tumaning infra tuzulmasi tashkil etadi

Javoxir Axmad o'g'li Fayzullayev
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda rivojlanish istiqbollarini asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jarayonlarini rivojlantirish orqali mamlakatimizning ichki bozorini o'zimizning sifatli va hamyonbop tovar va xizmatlar bilan ta'minlash orqali, aholining asosiy qatlamini bandligini taminlash orqali va aholi qatlamini real daromadlarini oshirish VA tovar resurslarini oqilona taqsimlashga erishish orqali ulardan samarali foydalanish jarayonlariga va ijtimoiy qatlam guruhlari daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishchora tadbirlari uchun asos vazifasini bajaradigan resurslar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: isloxotlar, tabiiy resurs, hom-ashyo, bozor iqtisodiyoti, infra tuzulmalar, ijtimoiy qatlam, payettekislik, tabiiy boyliklar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Development prospects are based on small business, private entrepreneurship and infrastructure of the district

Javakhir Akhmad oglu Faizullayev
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: The basis of the prospects for development in our country in the article is the development of small business and private entrepreneurship processes by providing the domestic market of our country with quality and affordable goods and services, by ensuring the employment of the main layer of the population and by increasing the real income of the population layer and achieving a rational distribution of commodity resources to the processes of their effective use and reducing the imbalance of income of social layer groups, the resources that have served as the basis for the activities of the population were mentioned.

Keywords: islahotlar, natural resource, raw-material, market economy, infra structures, social layer, payettekislik, natural resources, small business and private entrepreneurship

Dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan isloxotlar asosan bozor iqtisodiyotiga va ta'lim tizimida amalga oshirilgan tizimli yondashuvlarni korishimiz mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda rivojlanish istiqbollarini asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jarayonlarini rivojlantirish orqali mamlakatimizning ichki bozorini o'zimizning sifatli va hamyonbop tovar va xizmatlar bilan ta'minlash orqali, aholining asosiy qatlamini bandligini taminlash orqali va aholi qatlamini real daromadlarini oshirish orqali, tovar resurslarini oqilona taqsimlashga erishish va ulardan samarali foydalanish jarayonlariga va ijtimoiy qatlam guruhlari daromadlarining nomutanosibligini kamaytirish bu orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni bir tizimga solish orqali yaxshilashda katta ahamiyatga ega, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi.

Hozirgi kunda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni sub'yektlari bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozoridagi muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynab kelmoqda, bu esa raqobat muhitining shakllanishiga bu esa kichik biznesni va xususiy tadbirkorlik xizmatlarini rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Yuqorida aytilgan va keltirilgan fikrlarimizni Forish tumanining tuzulish va olib borilayotgan isloxoatlarni ko'rib chiqamiz. Forsh tumanida joriy yilning yanvar-iyun oylarida tumanda 308,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 291,4 mlrd. so'm kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilgan bu esa yoshlarni bandlik xolatlarini taminlaganligini ko'rishimiz va bu orqali saanoat subyektlaridagi o'sishni kuzatamiz.




Jizzax viloyati, Forish tumanining xaritasi

Forsh tumani hududining joylashuv o'rinlarini o'rganish orqali uning viloyatdagi joylashuvini o'rganib chiqishimiz lozim. Hududimizning joylashuvini o'rganadigan bo'lsak forsh tumani shimoli.g'arbiy qismida joylashgan bo'lib Relyefining tuzulishi payettekisliklar va qir, adirlar va Nurota, Pistali tog'laridan tashkil topgan. Nurota tizmasining joylashuvi shimoli-sharqdan (230-250 m) janubi-g'arbgacha esa (1400-2000 m) ko'tarilib boradi. Eng baland nuqatasi esa 2169 m (Zargar tog'idagi Hayotboshi cho'qqisidir). Janubi-g'arbda Nurota tog'lari va Qo'ytosh, Baliqlitov, Pistalitog', Yetimtog'i tizmalari ham hududning ijtimoiy iqtisodiy tuzulmasini belgilab beradi. Bundan tashqari tumanda Arnasoy, Tuzkon, Baliqli, Pistali ko'llari va Aydar botig'lari ham joylashgan.

Har bir hududning tuzulishini o'rganish jarayonida biz albatta uning har bir jihatini o'rganishimiz va bu orqali tumanda yoki iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirmoqchi bo'lgan obyektimizni har bir nuqtasini va bizga nomalum bo'lgan jarayonlarini o'rganishimiz lozim. Bu esa bizga amalga oshirishimiz mumkin bo'lgan jarayonlarni aniq va kafolatlangan natijani olishimizga yordam beradi.

Forsh tumanining hududiy tuzulishida Iqlimning keskin kontinental ko'rinishi va yozi judda issiq, havo quruq, qishki mavsum esa sovuqligi bilan ajralib turadi. Olingan ma'lumotlar bizga yillik o'rtacha temperaturani aniqlashga va bu orqali havo xaroratini $14,5^{\circ}$, yanvarning o'rtacha temperaturasi esa $-1,5^{\circ}$, eng past temperatura -32° , iyulning o'rtacha temperaturasi $29,5^{\circ}$, eng yuqori temperatura 46° ni kuzatishimiz mumkin. Havo harorati xattoki yillik o'rtacha yog'in miqdoriga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Yog'in miqdori yillik 340- 360 mm (shimoli-sharqida 240-260 mm, janubi-g'arbida 459-480 mm) yog'in yog'adi bu esa Forsh tumaning iqtisodiy va ijtimoiy turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi.



Asosiy xo'jalik faoliyati umanda, asosan, qishloq xo'jaligining chorvachilikka asoslangan bo'lib bundan tashqari hududda dehqonchilik, bog'dorchilik, tokchilik tarmoqlarini ham rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari forsh tumanida hududida qo'rg'oshin, rux, ohaktosh, bazalt, marmarlashgan qora ohaktosh kabi qazilma boyliklar ochiq usulda qazib olinib kelinmoqda.

Kuzatuv va tajribalar shuni ko'rsatadi Forsh imkoniyatlari bo'yicha respublikamizda eng boy tumanlardan biri hisoblanadi lekin o'z imkoniyatlaridan

foydalanish bo'yicha boshqa hududlardan biroz orqada qolamoqda Bu hududda yerning unumdorligi, qishloq xo'jaligining, geologiya, qayta ishlash sohalaridagi imkoniyatlarini to'g'ri ishga solsak, aholi farovonligini, mahalliy byudjetni oshirish mumkin, - deb Prezident o'z fikr muloxaza va takliflarini bildieib o'tganlari ham bejiz emas. Yuqorida aytilgan fikrlarni amaliy faoliyatini esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni Jizzax viloyati Forish tumaniga tashrif buyurib, atom elektr stansiyasini qurish uchun muhandislik tadqiqotlari olib borilayotgan maydonlardan birini ko'zdan kechirib amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdilar. Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizki xar bir hududning tuzulishi geografik tuzulmasi iqlimi joylashuv masshtabi hududning infra tuzulmasi va qishloq ho'jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asos bo'ladi. Keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida Forsh tumanini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol rejalarini ishlab chiqish uchun asos vazifa bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanib kelayotgan jamiyatning xar bir ijtimoiy iqtisodiy jixatlariga etibor qaratsakgina jamiyatimizda rivojlanish bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FORSH TUMANINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI 2022YIL YANVAR-DEKABR forsh tumani statistika bo'limi.
2. Forsh tumaning 2017-2019 yillarda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish xolati to'g'risida AXBOROTNOMASI. Jizzax-2020
3. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
4. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
5. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
6. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
7. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINF DAN TASHQARI SPORT MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG'ULARNI RIVOJLANTIRISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(8), 60-66.
8. Xalimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 841-844.

9. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45